

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MOTORIKA VA SENSORIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

B.S.Jamolova

ATVMU, Maxsus pedagogika 1-bosqich talabasi

Z.B.Xosilova

Ilmiy rahbar: v.b.dotsent

Annotatsiya: Mazkur mavzuda maktabgacha yoshdagi bolalarda motorika va sensorikaning shakllanishi hamda rivojlanish jarayonlari yoritiladi. Unda bolalarning yirik va mayda motorik ko'nikmalari, harakat faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi, shuningdek, sezgi organlari orqali atrof-muhitni idrok etish xususiyatlari tahlil qilinadi. Sensor rivojlanishning bola tafakkuri, nutqi, diqqat va psixik jarayonlariga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, maktabgacha yosh davrida motorika va sensorikani rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik usullar, didaktik o'yinlar va amaliy mashqlarning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: motorika, sensorika, maktabgacha yosh, mayda motorika, yirik motorika, sezgi organlari, sensor rivojlanish, psixomotor rivojlanish, idrok, harakat faoliyati, didaktik o'yinlar, bola rivojlanishi, koordinatsiya, sezgi-tarbiyasi.

Аннотация: Данная тема посвящена формированию и развитию двигательных и сенсорных навыков у детей дошкольного возраста. Анализируются особенности крупной и мелкой моторики детей, постепенное развитие двигательной активности, а также восприятие окружающей среды через органы чувств. Научно обосновано влияние сенсорного развития на мышление, речь, внимание и психические процессы ребенка. Также раскрывается важность педагогических методов, дидактических игр и практических упражнений, способствующих развитию двигательных и сенсорных навыков у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: двигательные навыки, сенсорные навыки, дошкольный возраст, мелкая моторика, крупная моторика, органы чувств, сенсорное развитие, психомоторное развитие, восприятие, двигательная активность, дидактические игры, развитие ребенка, координация, сенсорное образование.

Abstract: This topic covers the formation and development of motor and sensory skills in preschool children. It analyzes the characteristics of children's large and small motor skills, the gradual development of motor activity, as well as the perception of the environment through the senses. The impact of sensory development on a child's thinking, speech, attention, and mental processes is scientifically substantiated. It also reveals the importance of pedagogical methods, didactic games, and practical exercises that serve to develop motor and sensory skills in preschool children.

Keywords: *motor skills, sensory skills, preschool age, fine motor skills, gross motor skills, sensory organs, sensory development, psychomotor development, perception, motor activity, didactic games, child development, coordination, sensory education.*

Kirish. Maktabgacha yosh davri inson hayotining eng muhim va mas'uliyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bolaning jismoniy, aqliy va psixologik rivojlanishiga asos solinadi. Bola atrof-muhitni o'rganishda sezgi organlari va harakat faoliyati orqali amalga oshiradi. Shu bois, sensorika va motorikaning to'g'ri shakllanishi keying ta'lim jarayoniga tayyorgarlikning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning bilish jarayonlari faol harakat va sezgi tajribasi orqali rivojlanadi. Jumladan, Jean Piaget bolalarning intellektual rivojlanishi bosqichma-bosqich kechishini va dastlabki bosqichda sezgi-harakat faoliyati muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda sensorika va motorikaning shakllanish jarayonlarini o'rganish, ularni samarali rivojlantirish usullarini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

Bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish ular tafakkurining kuchli rivojlanishiga zamin tayyorlashi ko'p psixolog va pedagoglar tomonidan ta'kidlab o'tilgan. Masalan, M.I.Koltsova, Ye.I.Iseina, A.V.Antakova-Fomina va boshqalar mayda qo'l motorikasining rivojlanganligi bolalar nutqini shakllanishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb ta'kidlasalar, P.Losev mayda qo'l motorikasi va barmoqlar harakatini mutanosibligi bolalarni maktabgacha yoshda to'g'ri rivojlanishining eng muhim masalalaridan biridir, deb hisoblaydi.

N.S.Jukova, Ye.M.Mastyukova, T.B.Filecheva, S.I.Bot va boshqalarning maxsus adabiyotlarida bo'lsa, mayda qo'l motorikasini rivojlantirish yo'llari orqali nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini to'g'ri shakllantirishga yo'naltirilgan usullar berilgan.

Ma'lumki, mayda motorika – bu bolalarning qo'l-oyoqlarining kaftlari va barmoqlari bilan mayda va aniq harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Mayda motorika sohasi o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib u ko'p sonli va turli xil harakatlarni o'z ichiga oladi. Masalan: oddiy harakatlardan tortib (o'yinchoqlarni, har xil detallarni ushlash) murakkab harakatlargacha (yozish va rasm chizish kabi). Mayda motorikalar bola tug'ulgan paytidan boshlab rivojlana boshlaydi. Dastlab, go'dak o'z qo'llarini o'rganadi va asta sekin ularni boshqarishga o'tadi. U buyumlarni butun kafti bilan ushlaydi, keyin esa faqat barmog'lari yordamida ularni ushlaydi. So'ngra bolani qoshiq, qalam, mo'yqalam kabi buyumlarni to'g'ri ushlashga o'rgatishadi.

Yirik motorika – bu tana, qo'l va oyoqlarning yirik mushaklari orqali amalga oshiriladigan harakatlar majmuidir. Bunga yurish, yugurish, sakrash, emaklash va muvozanatni saqlash kabi asosiy harakatlar kiradi, ular bolaning jismoniy rivojlanishi hamda harakatli o'yinlarda faolligi uchun o'ta muhim hisoblanadi.

Mayda motorikaning bola organizmidagi o'rne va ahamiyati alohida sanaladi. U bolalarni asab tizimi, ko'rish qibilyati, diqqat, e'tibor, xotira va idrok qilish kabi organizm xususiyatlarini shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari bolaning nutqini rivojlanishida ham mayda motorikaning ta'siri yuqori bo'lib, dastlab bolaning tovushlarini shakllanishiga va nutqini o'sishiga mativatsiya bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur sohaning bola rivojlanishidagi o'rne haqida Davlat talablarida ham alohida e'tibor qaratilgan. 3-4 yoshli bolalarga quyiladigan talab quyidagicha: bola qo'li va barmoqlarini turli maqsadlarda ishlatadi, mayda predmetlarni ma'lum bir tartibda tahlilaydi, o'yinchoqlarni qutiga joylashtiradi yoki oladi, yozishga rasm chizishga harakat qiladi. 4-5 yoshli bolalar mustaqil tugmachalarni qadaydi va yechadi, ipga mayda, o'rta va yirik munchoqlarni teradi, rasmlarni bo'yaydi, ko'rsatilgan chiziq buylab qaychi bilan kesadi. 5-6 yoshda kichik va katta o'yinchoqlarni hajmiga qarab qutiga joylaydi, o'yinchoqlarni nomini ayta oladi, qog'ozni mustaqil o'zi qirqadi, qog'ozni turli usulda taxlaydi, namuna asosida bosma harflarni yozadi, barmoqlar yordamida mashqlar bajaradi, mozaika yig'adi. 6-7 yoshda: tasavvurdagi predmetlarni qo'llari bilan ko'rsatadi, arqonlardan turli tugunlarni tugadi, mayda qisimli puzzle va mozaikalarni yig'adi, qog'ozda to'g'ri chiziqlar, so'zlar va qisqa gaplarni yozadi va hokazo.

Yosh bolalarda mayda motorikani rivojlantirish nafaqat qo'l harakatlarini aniqlashtiradi, balki nutq markazlarini faollashtiradi, diqqat va xotirani kuchaytiradi. Quyida ushbu jarayonni yoritib beruvchi bir nechta metodlar keltirilgan.

“ Kaftlarni massaj qilish”. Bu metod sensor rivojlanishning ilk poydevori hisoblanadi. Bu har qanday yosh uchun mos keladigan eng oddiy va universal usuli. Kaftlarda juda ko'p biologik faol nuqtalar joylashgan bo'lib, ularni silash va yengil bosish orqali markaziy asab tizimiga ijobiy impulslar yuboriladi. Ushbu usul orqali bolada tana a'zolarini his qilish qobiliyati shakllanadi.

“ Qog'oz yirtish”. Bu metod 7 oyni to'ldirgan bolalarga to'g'ri keladi. Kichikintoyga bir necha varaq yumshoq rangli qog'oz berish kerak bo'ladi. U qog'ozni bajonidil ushlab ko'radi, qo'llarida aylantiradi va yirtadi. Bu mashg'ulot unga juda kata zavq bag'ishlaydi, shu bilan birga barmoqlarning “ chimdim” tutqichini shakllantirishdagi o'rne beqiyosdir. Qog'ozni bo'laklarga ajratish orqali bola buyumning butunligi va qismlarga bo'linishi haqidagi ilk mantiqiy tushunchalarni o'zlashtiradi.

“ Qumda o'ynash”. Bu usulda bolaning barmoqchasini o'z qo'limizga olib, uni qum bo'ylab yuritamiz. Rasm chizishni chiziq, to'g'ri burchak, doira kabi oddiy shakllardan boshlab, ularni asta-sekinlik bilan murakkablashtirish mumkin.

Qumning mayda zarralari bilan kontakda bo'lish barmoq uchidagi retseptorlarni maksimal darajada ishga soladi. Bu esa taktil sezuvchanlikni birmuncha oshiradi.

“Mozaika va pazllarni yig’ish”. Ushbu metodda 3 yoshgacha bo’lgan bolalar uchun yirik qismdan iborat pazllar va mozaikalar tanlanadi. Pazllar bolaning tasavvurini ham mashq qildiradi. Yumshoq narsalarga shakl berishda esa shakl berish turli yoshdagi bolalarga mos keladi. Ular plastilin, loy va xamirdan turli narsalarni yasashlari mumkin.

Sezgi o’z mohiyati jihatidan birmuncha soda psixik jarayon bo’lishiga qaramay, barcha bilimlarimizning asosiy manbayidir. Narsa va hodisalarning ayrim belgilarini, xususiyatlarini aks ettirishdan iborat bo’lgan sezish protsessining fiziologik mohiyati mashhur fiziolog I.M.Sechenov va I.P.Pavlovlarining analizatorlar haqidagi ta’limotlarida atroflicha ochib berilgan. Akademik I.P.Pavlov organizmning hissiy aks ettirish apparatlarini analizatorlar deb ataydi. Analizatorlarning bironta qismi ishdan chiqsa, sezish bo’lmaydi. Analizatorlarning asosiy vazifasi organizmga ta’sir etayotgan turli qo’zg’ovchilarni ayrim bo’laklarga ajratishdan, ya’ni analiz qilishdan iboratdir. Shuning uchun ham sezgi organlari analizatorlar deb ataladi.

Sensor rivojlanish har qanday amaliy faoliyatni muvaffaqiyatli egallashning sharti hisoblanadi. Tevarak-atrofdagi borliqni bilish sezgi va idrokka asoslanadi. Tassavurning asosini bevosita sezish orqali idrok qilish tashkil etadi. Sensor tarbiya sezgi va idrokni biror maqsadga qaratilgan holda rivojlantirishdir. “Sensor” so’zi lotincha “sensus” – “tuyg’u”, “sezgi”, “idrok”, “sezish qobiliyati” ma’nolarini anglatadi, ya’ni borliqni bilish sezgi, idrok qilishdan boshlanadi.

Maria Montessori tomonidan yaratilgan Montessori metodikasi bolalarning tabiiy rivojlanishiga tayanib, ularning mustaqil faoliyatini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu metodika maktabgacha yoshdagi bolalarda ayniqsa sezgi (sensor) rivojlanishiga alohida e’tibor beradi, chunki aynan shu davrda bola atrof-muhitni faol ravishda idrok eta boshlaydi. Shuning uchun ham Montessori yondashuvida sensor tarbiya muhim o’rin egallab, quyidagi maqsadlar nazarda tutilishi kerak: xotira, tafakkur, xayol jarayonlari hosil bo’ladi. 3-6 yosh davri maktabgacha yoshning eng faol rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bu davrda bolaning sezgi organlari yanada takomillashadi va u atrof-muhitni aniqroq, ongli ravishda idrok eta boshlaydi. Ko’rish rivojlanishi: bola ranglarni aniq farqlay boshlaydi, geometrik shakllarni ajrata oladi, katta-kichik, baland-past, uzun-qisqa tushunchalarini anglaydi, tasvirlarni solishtirib farqlarini topa oladi. Eshitish rivojlanishi: tovushlarni farqlash qobiliyati kuchayadi, so’zlarni to’g’ri eshitib takrorlay oladi, nutq tovushlarini ajrata boshlaydi. Bu davrda eshitish sezgisi rivojlanishi nutq shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Teri sezgisi: issiq-sovuqni aniq farqlaydi, qattiq-yumshoqni sezadi, turli teksturadagi predmetlarni ajrata oladi. Plastilin, qum, loy bilan o’ynash taktil sezgini rivojlantiradi. Hid va ta’m sezgisi: turli hidlarni ajratish kuchayadi, ta’mlarni farqlay boshlaydi (shirin, achchiq, nordon).

Sensor tarbiya qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bolalar buyumning faqat nimaga ishlatilishini, nomigagina bilishi yetarli bo’lib qolmay, balki ular buyumlarni chuqurroq idrok etishi, ularni ushlash, ular bilan muomalada bo’lganda xilma-xil sezgilar ishtirok etishi ham juda muhimdir, deb biladi. Tarbiyachi sensor tarbiyaning ana shu

tomonlariga alohida e'tibor berishi, bolalarga tegishli topshiriq berishi: buyumlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yishda ularning og'irligini his qilish, buyumni qo'lga olib, uning sirtini sezishi va sifatini - issiq yoki sovuqligini ana shunga o'xshashlarini aniqlashi kerak. Shunga asoslanib, sensor tarbiyaning quyidagi vazifalari belgilanadi:

- Bolalarda perspektiv harakatlarni shakllantirish.
- Buyumlarning xususiyati, sifati, munosabati to'g'risidagi umumlashgan tasavvurlar sensor etalonlar sistemasini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga sensor tarbiya berish - bu ularning jismoniy, aqliy va emotsional rivojlanishini ta'minlashda juda muhim ahamiyatga ega. Sensor tarbiya deganda, bolalarning sezgilarini rivojlantirish va ularni atrof-muhitni faqat kuzatish orqali emas, balki sezgi organlari orqali qabul qilish va anglashga o'rgatish jarayoni tushuniladi. Sensor tarbiya bolaning bilim olish faoliyatida, ularning turli sezgilarini rivojlantirishda va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sensor rivojlanish, o'z navbatida, ularning harakatlar, so'zlashuv va hissiy xatti-harakatlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sensor tarbiya-bu bola harakati va nutqining rivojlanishida asosiy rol o'ynaydigan usul.

Maria Montessori tomonidan yaratilgan Montessori metodikasi bolalarning tabiiy rivojlanishiga tayanib, ularning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu metodika maktabgacha yoshdagi bolalarda ayniqsa sezgi (sensor) rivojlanishiga alohida e'tibor beradi, chunki aynan shu davrda bola atrof-muhitni faol ravishda idrok eta boshlaydi. Shuning uchun ham Montessori yondashuvida sensor tarbiya muhim o'rin egallab, quyidagi maqsadlar nazarda tutilishi kerak:

1. Barcha tashqi hissiyotlarni shakllantirish.
2. Tashqi hissiyotlarni tarbiyalash orqali hali to'liq shakllanmagan barcha ruhiy jarayonlarni rivojlantirish kerak. Chunki diqqat, intellekt va iroda to'liq rivojlanmagan bo'ladi.
3. Odatiy bir yoqlama madaniy tasavvurdan xalos bo'lish.
4. Nutq apparatlari orqali tilni rivojlantirish, so'z boyliklarini oshirish.
5. Bolalarning ruhiy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq tarzda, o'z-o'ziga xizmat qilishda ehtiyoj va talablarni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yosh davri inson hayotida shunchaki "o'yin davri" emas, balki bolaning sensor va motor rivojlanishi uchun eng fundamental bosqich hisoblanadi. Aynan 3–6 yosh oralig'ida sezgi organlari faoliyati o'zining cho'qqisiga chiqadi: bola atrof-dagi ranglar jilosini, shakllar mutanosibligini, hajmdagi farqlarni va tovushlar ohangini ongli ravishda idrok eta boshlaydi. Bu jarayon shunchaki ma'lumot to'plash emas, balki bolaning keyingi aqliy rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratishdir.

Shuningdek, yirik va mayda motorikaning rivojlanishi bolaning nafaqat jismoniy faolligi, balki uning nutqi va tafakkur jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Xususan, barmoqlarning nozik harakatlari bosh miya yarim sharlaridagi nutq markazlarini rag'batlantiradi. Binobarin, bolaning rasm chizishi, loydan narsalar yasashi yoki turli konstruktorlar bilan ishlashi – bu shunchaki ermak emas, balki uni maktab ta'limiga, yozishga tayyorlash, diqqatni jamlash va nutqini shakllantirishning eng samarali yo'lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Z.Nishanova , M.Asranboyeva , G.Alimova , A.Turg'unboyeva “ Bolalar Psixologiyasi va Psixodiagnostikasi” –Toshkent. Darslik.2019.
2. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi- Toshkent.1993.